

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan ijro intizomini samarali tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 25-iyulda “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 117-sonli Farmon qabul qilinib, unga ko‘ra Prezident Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari hamda hukumat qaror va topshiriqlari ijrosini tashkil etish va nazorat qilishning yanada samarali mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi.

Bu bilan, Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarida berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida “**Biznesni rivojlantirish banki**” ATB tomonidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, bankda ijro intizomiga bevosita mas‘ul mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida **Bank Ijro apparati** faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, bankda **ish yuritish** va **ijro nazoratini tashkil etish**da xat-hujjatlarning **elektron aylanishi yo‘lga qo‘yilgan**.

Jumladan, bugungi kunda, ushbu **elektron dastur** orqali:

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar kelib tushgan vaqtdan boshlab **30 daqiqa** mobaynida **Bank Ijro apparati** mas‘ul xodimi tomonidan **ro‘yxatdan o‘tkaziladi** hamda **rahbariyatga axborot beriladi**;

- rahbariyat **bir kun muddatda** mas‘ul ijrochini belgilagan holda **tegishli topshiriqlarni beradi**;

- **belgilangan muddat** doirasida mas‘ul ijrochi tomonidan topshiriq ijrosi bo‘yicha ma‘lumotlar va hujjatlar rahbardan elektron tasdiqlanib, **tegishli tashkilotlarga yuboriladi**.

Ushbu elektron dastur orqali topshiriqlarning bajarilish jarayoni doimiy nazorat qilinadi, belgilangan muddatlarda ijro etilishini monitoring qilish, ijro intizomini tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari yaratilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida **2026-yil 29-aprel** holatiga “**Ijro.gov.uz**” tizimi orqali **quyidagi ijro mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan**:

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jami 339 ta** hujjatda **1 499 ta topshirig‘i** kelib, **1 193 tasi (79 foizi)**ning ijrosi to‘liq ta‘minlangan;

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi** tomonidan **26 ta** hujjatda **40 ta topshiriq** kelib, **34 tasi (85 foiz)** ijrosi ta‘minlandi;

- **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** tomonidan **106 ta** hujjat bilan **209 ta topshiriq** kelib, **182 tasi (87 foizi)** bajarilgan.

O‘z navbatida, joriy yilning 29-aprel holatiga **may oyi** davomida **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 ta** topshiriqlari, xususan:

Farmonlari bilan **2 ta**;

Qarorlari bilan **1 ta**;

Bayonlari bilan **3 ta** topshiriqlar ijrosini ta'minlash belgilangan.

Shuningdek, **Prezident Administratsiyasining 1 ta** va **Vazirlar Mahkamasining 3 ta** topshiriqlari ijrosini ta'minlash belgilangan.

Berilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq hamda sifatli ta'minlash maqsadida, o'rnatilgan tartibda **barcha zarur choralar** ko'rib kelinmoqda:

Birinchi dan, har haftaning juma kuni Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari huzurida **"Ijro.gov.uz"** elektron tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar hamda maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishi holati muhokama qilinadi. Shuningdek, **har haftaning dushanba kuni** Boshqaruv raisi boshchiligida ijro intizomi yo'nalishidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish masalalari yuzasidan yig'ilishlar o'tkaziladi;

Ikkinchi dan, reja-grafikka muvofiq, bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari va Hududiy boshqarma hamda BXO/BXMIlari mas'ul xodimlarining bilim va ko'nikmalari oshirish maqsadida **iqtisodiy o'qishlar** tashkil etilmoqda.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida bank tizimida **kunlik nazorat** o'rnatilgan bo'lib, **topshiriqlar ijro holati** yuzasidan **belgilangan muddatlarda hisobot** kiritib boriladi.